

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA
TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI
МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО
ФОРМИРОВАНИЮ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ
ПЕДАГОГОВ**

**THE METHOD OF ORGANIZING EXPERIMENTAL WORK IN THE FORMATION OF
ANALYTICAL THINKING IN FUTURE PEDAGOGUES**

Abdujabborov Abduxalim Abdug'appon o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni shakllantirishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi tavsiflangan va pedagogik jihatlari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье описывается метод организации экспериментальной работы по формированию аналитического мышления у будущих педагогов и анализируются педагогические аспекты.*

Abstract: *In the article, the method of organizing experimental work in the formation of analytical thinking in future pedagogues is described and pedagogical aspects are analyzed.*

Kalit so'zlar: *analitik tafakkur, fanlararo hamkorlik, innovatsion va interfaol metodlar, blits-so'rov, klaster, sinkveyn, konseptual jadval.*

Ключевые слова: *аналитическое мышление, междисциплинарное сотрудничество, инновационные и интерактивные методы, блиц-опрос, кластер, синквей, концептуальная таблица.*

Key words: *analytical thinking, interdisciplinary cooperation, innovative and interactive methods, blitz survey, cluster, syncway, conceptual table.*

KIRISH. Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish samaradorligini eksperimental tahlilini o'tkazish tadqiqot ishining eng muhim bosqichi hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlarining umumiy maqsadi bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion usullarini tahlil qilish, ularda analitik va tanqidiy tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish, analitik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iborat. Mazkur jarayonda fanlararo hamkorlikdan foydalanish, ijtimoiy-gumanitar va pedagogik-psixologik fanlar integratsiyasini yo'lga qo'yishning samaradorligi ham baholangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida analitik tafakkur ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davob etmoqda.

Jumladan, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, R.Safarova, Sh.Mardonov, D.Ro'ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Y.Shiyanov Z.T.Soliyevlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida analitik tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish omillari tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etish, tanqidiy fikrlash ko'nikmasi, mantiqiy tahlil qilish usuli, shuningdek, analitik tahlilkorlik bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlanganlik darajasi, dunyoqarashi, tafakkur qilish tarzi, muammoni yechish ko'nikmasi tadqiqot ishiga doir maxsus tayyorlangan testlar va savolnomalar asosida aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurni rivojlantirishga oid turli metodlar, texnologiyalar va fanlararo hamkorlik yondashuvaridan foydalanildi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlanganlik samaradorligi to'rt bosqichda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari bo'yicha aniqlandi.

fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak pedagoglarning mutaxassislik va gumanitar fanlardan bilimlilik darajasi va aqliy salohiyati asosida;

tanqidiy va tahliliy fikrlash tarzi va uning samaradorligi bo'yicha;

ilmiy-pedagogik va ijtimoiy vaziyatlar va muammolarga nisbatan analitik yondashuvning rivojlanganligi bo'yicha;

analitik tafakkurni tezkor qaror qabul qilish, vaziyatlardan oqilona chiqish va muammolarni tezkorlikda bartaraf etishga xizmat qilishi bo'yicha. Bu qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha taqqoslash va umumlashtirishlardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichining asosiy maqsadi bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurni rivojlanganlik holatini o'rganish, kamchiliklarni tahlil qilish va mavjud ziddiyatlarni aniqlashdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi va amalga oshirildi:

bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlar, amaliyotning xolati va bu boradagi xorij tajribasi o'rganildi, u asosida test va so'rovnomalar ishlab chiqildi;

bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirishda professor-o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalari, ilmiy salohiyati aniqlandi;

anketa va test savollari yordamida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bilim va ko'nikmalar kompleksi o'rganildi;

bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni innovatsion usulda rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan o'quv-uslubiy va mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni bilan tanishildi.

Ushbu tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida quyidagilarga asosiy e'e'tibor qaratildi:

1. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirishda adabiyotlar, darsliklar va qo'llanmalarining mavjudligi, ularning saviyasi, shuningdek, xorijiy ilmiy va uslubiy adabiyotlarining mavjudligi, ilg'or chet el OTMLaridagi ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil qilindi va aniqlandi.

2. Bo'lajak pedagoglarning analitik tafakkurini innovatsion usulda rivojlantirishda fanlararo hamkorlikdagi ta'lim texnologiyasining samarasini aniqlash maqsadida anketa savol-javoblari tahlil qilindi va umumlashtirildi.

3. Tajriba-sinov ishlari jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlandi va bartaraf etish choralari ishlab chiqildi.

Mazkur ishlar asosida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirishning istiqbolli rejalari va yuksaltirish yo'llari belgilab olindi. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi, ko'nikma va malakalarini jahon standartlari darajasida rivojlantirish mazmuni, shakl va metodlari to'g'risida ma'lumotlar to'plandi. Muammo bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumotlar, o'quv-uslubiy materiallar jamlandi, ilg'or xorijiy OTMLar tajribasi o'rganildi.

Olingan natijalar umumlashtirildi, xulosalar chiqarildi va muammo doirasida doimiy monitoring o'rnatildi.

Professor-o'qituvchilar bilan tadqiqot doirasida olib borilgan anketa so'rovlari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda tanqidiy-analitik fikrlash va mantiqiy tahlil qilish usuli samarali bo'lishi xulosa qilindi. Buning uchun talabalarga akademik erkinlik berish, erkin fikr bildirish ko'nikmasini shakllantirish, axborotni qayta tahlil qilish usulining ahamiyatini yuqori baholashdi. Bundan ko'rinadiki, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga muhim e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tajriba-sinov jarayonining ikkinchi bosqichida birinchi tajriba-sinov ishlari davomida aniqlangan muammolar, ziddiyat va kamchiliklarga barham berish, bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion usullarini, o'qitishning samarali metod, shakl, vositalarini amaliyotda sinab ko'rish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot ishining ilmiy faraziga ko'ra, ikkinchi bosqich tajriba sinov ishlari natijasi birinchi bosqichdan farqli bo'lishi, analitik-mantiqiy fikrlashga, analitik tahlilga, muammoni yechish ko'nikmasiga o'rgatish bo'lajak pedagoglarning tahliliy fikrlash salohiyatini o'sishida namoyon bo'ladi. Bu borada quyidagi vazifalar belgilandi:

tajriba va nazorat guruhlarini belgilash. Respondentlarga tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, vazifalar va ularning ushbu jarayonda tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarni berish;

bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mezon, metodika hamda o'quv materiallari asosida tajriba guruhlarida dars jarayonini tashkil etish;

bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish innovatsion usullarini tashkil etish jarayonining doimiy monitoringini yaratish va uni davom ettirish, tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalarni taqqoslash hamda tahlil qilish;

tajriba-sinov ishlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish;

bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlikda rivojlantirish darajaslarini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqich tajriba-sinov ishlari Farg'ona politexnika instituti, Qarshi davlat universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetlaridan tanlab olingan 9 ta guruhlarda olib borildi.

Ikkinchi bosqich tajriba-sinov ishi yakunida olingan natijalar umumlashtirildi va tahlil qilindi.

3. Uchinchi tajriba-sinov ishlari ushbu jarayondagi oxirgi va muhim bosqich bo'lganligi bois unga alohida e'tibor qaratildi. Bu bosqichda bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurini fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariya, mezon hamda uni amalga oshirish texnologiyasining yutuq va kamchiliklarini aniqlash, takomillashtirish hamda samaradorlik darajasini xolisona baholash asosiy maqsad qilib olindi.

Ushbu tajriba-sinov ishlarida quyidagi vazifalar bajarildi:

tajriba o'tkazilgan guruhlar talabalarining test, anketa so'rovlariga javoblari asosida aniqlangan analitik tafakkurni rivojlantiruvchi ko'nikmalarni taqqoslash, xulosalar chiqarish;

belgilangan metodikani yangi tavsiyalar va xulosalar bilan boyitish;

o'tkazilgan barcha tajriba-sinov ishlarining umumiy tahlilini ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich tajriba-sinov ishlarining umumiy tahlili oldingi tajriba-sinov ishlari natijalariga taqqoslandi.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borish jarayonida quyidagilarga ahamiyat qaratildi:

- bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirishda fanlarni muammoli o'qitish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, axborotni analitik tahlil qilish layoqatini shakllantirish metodikasining an'anaviy o'qitish metodidan ustunligini;

- darsni "SWOT tahlil" asosida bahs-munozarali tarzda olib borish, germeneytik, suqrotcha baxs metodlarni qo'llash talabalarning analitik tahlil qobiliyatini va erkin fikrlash darajasiga ijobiy ta'sirini;

- ilg'or xorijiy tajriba asosida ilmiy-pedagogik adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish bo'lajak pedagoglarda individual analitik tahlil va muammoni yechish ko'nikmasini o'stirishini;

- liberal ta'lim tizimini tashkil etish, erkin ilm olish muhitini yaratish, pedagog va talaba munosabatlarida tenglik, samimiylilik va bahs-munozara holatini yuzaga

chiqarish erkin, faol muloqotga kirishuvchi, mustaqil fikr bildiruvchi mutaxassislarni yaratishini;

- bo'lajak pedagoglarni analitik tafakkur asosida turlicha siyosiy, ijtimoiy muhitda, tizimda ham ishlash va munosabatga kirisha olish ko'nikmasi yuzaga chiqishi namoyon bo'ldi.

Tanlab olingan OTMlarda o'tkazilgan tajribalar bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlanish holati milliy ta'lim standartiga ham, salohiyatli xorijiy oliy ta'lim muassasasi mezonlariga ham javob bermasligini ko'rsatib berdi.

Tajriba-sinov ishlari ilmiy ish gipotezasining to'g'riligini isbotladi. Ya'ni bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishda fanlararo hamkorlik asosida erkin fikrlash uchun zaruriy sharoitlar yaratilishi, tanqidiy fikrlashni o'rgatadigan "SWOT tahlil", suqrotcha bahs usuli, analitik tahlil asosida bahs-munozara yuritish, o'z fikrini erkin bildirish muhitini yaratish yuqori samara berishini isbotladik.

Tadqiqot davomida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning yangi shakl va metodlaridan foydalandik.

Oliy pedagogik ta'limga fanlararo hamkorlik asosida yangicha yondashuv, yangicha o'qitish tizimini yaratish talabalarida analitik tafakkur salohiyatini rivojlantirishi imkoniyatini ham oshirishini ko'rsatdi. Uning oliy ta'lim muassasalarida ko'proq va kengroq hajmda fanlararo hamkorlikda o'tilishi talabalar analitik tafakkurini o'stirishda samaradorligi amaliyot sinovida isbotlandi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirishning amaliy tatbiqi ularning faoliyatiga ikki xil yondashish lozimligini taqozo etdi:

1. Bo'lajak pedagoglarda ilmiy dunyoqarashini, tanqidiy fikrlash, analitik tahlil va muammoni echish ko'nikmasini shakllantirish;

2. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni innovatsion usulda fanlararo hamkorlik yordamida rivojlantirish.

Didaktik andoza (pedagogik)ning tashkiliy-pedagogik faoliyati uchun ko'p tarmoqli asoslari ishlab chiqilgan:

a) mutaxassislik fanlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar hamkorligi va amaliy faoliyatda birligini didaktik sintezini ta'minlovchi sharoitni yaratish;

b) professor-o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatlarini shaxs va shaxs munosabatlari asosida ta'minlovchi ta'lim shaklidan foydalanish;

v) analitik tahlil metodi asosida "Tizimli-analitik tahlil" tanlov fanini oliy ta'lim muassasalarida keng hajmda o'tilishiga yorishish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonida umumiy maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar bajarildi:

Professor-o'qituvchilar va bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurning mavjud holatini o'rganish. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalar orasida test, anketa so'rovlarini o'tkazish, suhbatlar, muloqotlar tashkil etish, dars

jarayonini kuzatish, ta'lim mazmunining mavjud holatiga nisbatan o'qituvchilar fikr-mulohazalarini o'rganish, tahlil etish kabi holatlar mazkur vazifani samarali hal etish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirish imkonini beruvchi shart-sharoitlarni aniqlanadi. Vazifani ijobiy hal etishda ularning analitik tafakkurini, dunyoqarashini, fikrlash tarzini rivojlantirishga yordam beruvchi umumiy omillar aniqlandi, rivojlantirish tizimi yaratildi.

Oliy ta'lim muasasalarida bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurini yuksaltirishga to'siq bo'layotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari va talabalari bilan bevosita muloqot, suhbat hamda bahs-munozaralar, o'zaro tajriba almashish asosida amalga oshirildi.

4. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni innovatsion usulda rivojlantirishda fanlaraoro hamkorlikning samarador texnologiyalari belgilandi. Mutaxassislik fanlari doirasidagi samarali ta'lim metodlarini darslarda qo'llash mexanizmlari, bo'lajak kadrlarda hosil bo'lgan analitik tafakkur darajasi, ularning aqliy faoliyati, teran tafakkuri, keng dunyoqarashini shakllantirish borasida olib borilgan pedagogik faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil etish asosida amalga oshirildi.

5. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni innovatsion usulda rivojlanish darajasini aniqlovchi baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mezonlar ilmiy ishda ilgari surilgan analitik tafakkurni rivojlantirish usullari, tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, germeneytik yondashuv va dialektik bahs-munozara usullariga muvofiq ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlari bir qator tamoyillarga muvofiq olib borildi:

Tajriba-sinov ishlari maqsadining aniqligi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish jarayonida haqqoniylik va xolislikning ta'minlanganligi.

Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishga oid pedagogik faoliyatning izchil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilganligi.

Bo'lajak pedlagoglarning analitik tafakkurini yuksaltirishga oid ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan fan o'qituvchilarining ijobiy, ijodiy va texnologik yondashuvlari.

Ushbu tamoyillar tajriba-sinov ishlarining samarali olib borilishi, ko'zlangan natijalarning ijobiy hal qilinishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

XULOSA. Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni fanlararo hamkorlik asosida rivojlantirish muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, uni rivojlanituvchi pedagogik shart-sharoitlar va obyektiv, subyektiv omillarni aniqlash, aqliy qobiliyatning ijtimoiy mohiyatini tadqiq etish, shuningdek, bo'lajak kadrlar analitik tafakkurini rivojlantirish tizimini takomillashtirish va uni nazariy jihatdan asoslab berish kerak. Ushbu tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy xulosalar va qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlarning pedagogik tabiati tadqiqot mazmuniga mos kelishi,

tanlangan uslubga ekvivalent uslub borligi va u mavjud uslublar ichida rejalashtirilgan tadqiqotga eng muqobil ekanligi aniqlanmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Майсак, О. С. (2013). SWOT-анализ: объект, факторы, стратегии. Проблема поиска связей между факторами. Прикаспийский журнал: управление и высокие технологии, (1), 151-157.
2. Национальная модель и программа по подготовке кадров-достижение и результат независимого Узбекистана.-Ташкент:Маърифат-Мададкор, 2001.-С.174-189.
3. Романов В. Интеллектуальные информационные системы в экономике. - М. : Экзамен, 2003. –С.494.
4. Семенов И.Н. Рефлексивный подход в формировании и развитии личностно-профессионального самосознания студентов как фактор модернизации высшего образования. Москва.:ФИРО, 2013. –С.57-59.
5. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: методология,теория, практика: научное издание. –М.: 2005. –С.67-71.